
NAVBATDAGI TADBIRKORLAR QABULI O'TKAZILDI



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni faol qo'llab-quvvatlash, oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama rag'batlantirish, eksport faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar hamda xorijiy investorlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratib berish maqsadida Qo'sh tepa tumani hokimi I. Novikov tomonidan an'anaviy tarzda haftaning har dushanba kuni "Tadbirkorlar qabuli" o'tkazib kelinmoqda.



Bugun, Qo'sh tepa tumanidagi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonasida navbatdagi tadbirkorlar qabuli o'tkazildi. Qabulda ishtirok etgan tadbirkorlarning murojaatlari tuman rahbari tomonidan birma-bir tinglandi.

Qabul davomida ishtirok etgan 6 nafar tadbirkorning murojaatlarini hal etish yuzasidan soha mutasaddilariga aniq vazifalar yuklatildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-12-13 13:40:02